

## MARKAZIY OSIYO JANUBIDA KO'CHMANCHI JAMOALARGA XOS TOPILMALARNING TADQIQ ETILISHI

*Xurramov Xamid Boboqul o'g'li*

*Qumqo'rg'on tumani 79-maktab tarix fani o'qituvchisi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo janubida, xususan, Tojikiston hududidagi bronza davri jamoalarining shimoliy ko'chmanchi dasht qabilalari bilan simbiozi masalasi moddiy manbalar asosida yoritilgan.

**Абстракт.** В данной статье на основе материальных источников освещается вопрос симбиоза сообществ эпохи бронзы с северными кочевым степными племенами на юге Средней Азии, в частности, на территории Таджикистана.

**Abstract.** In this article, the issue of symbiosis of the Bronze Age communities with the northern nomadic steppe tribes in the south of Central Asia, in particular, in the territory of Tajikistan, is covered on the basis of material sources.

Shimoliy Baqtriya hududlari doirasida bronza davriga tegishli yodgorliklar asosan janubiy-g'arbiy Tojikiston hududidan topib o'rganilgan. Ular so'nggi bronza (mil. avv. II-ming yillikning to'rtinchi choragida) davriga oid bo'lib, ilk va rivojlangan bronza davri yodgorliklari bu mintaqadan topilmagan. Janubiy-g'arbiy Tojikistonning bronza davri yodgorliklari kelib chiqish tarixiy ildizlariga ko'ra, uchta etnik guruhlarga borib taqaladi. Bular:

- birinchisi – chorvador Bishkent va Vaxsh madaniyati etnik guruhlari;
- ikkinchisi – qadimgi dehqonchilik madaniyati etnik guruhlari;
- uchinchisi – Yevroosiyo dashtlarining andronova madaniyati etnik guruhlari.

Demak, janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlari so'nggi bronza davrida turli etnik guruhlarning o'zaro iqtisodiy va siyosiy hamda etnomadaniy aloqalar markazi bo'lgan. Janubiy Tojikistondagi chorvador qabilalar madaniyati yodgorliklarini tizimli o'rganish 1955 yildan boshlanadi. Ungacha P.I.Smolichev va A.I.Terenojkinlar tomonidan topilgan yolg'iz qabrning etnik asosi va ularning yil sanalarini belgilashda ilmiy aniqlik yetishmas edi. P.I.Smolichev ularni mil. avv. I- ming yillikka tegishli desa, A.I.Terenojkin Yunon-Baqtriya davriga tegishli, degan xulosaga kelgan.

1941 yilda Sharshara qishlog'idan eneolit davriga tegishli zo'g'atali mis bolta topiladi va uning yil sanasi (mil. avv. IV-ming yillikning oxiri va III- ming yillikning boshlari) bilan belgilanadi. Bronza davrining tasodifiy topilgan yana bir ashyosi – bu dastasiga qadama naqsh berilgan hanjar bo'lib, uning yil sanasi ham (mil. avv. II-ming yillikning oxiri) belgilanadi. Xisor vohasining antik davriga tegishli Tupxona qabristonidan skeletlari xuddi ona qornida yotgan holatda ko'milgan ikkita bronza davriga oid qabr ochilgan. Ulardan birida qo'y suyaklari va asosi chaqmoqtoshdan

ishlangan nukleus uchratilgan. B.A.Litvinskiy mana shu nukleusga asoslanib, bu ikkala bronza davri qabrlarini ilk bronza davri bilan belgilaydi.

Aslida u yerdan topilgan sopol parchalari Mo'lali bosqichi sopollari bilan xarakterlanadi. Bu tasodifiy topilmalar Janubiy-g'arbiy Tojikiston hududlari bronza davri jamoalari tomonidan keng ko'lamda o'zlashtirilganligi haqida ishora bersalarda, ammo bu hududni arxeologik jihatdan tizimli o'rganish 1955 yildan, Bishkent vodiysida A.M.Mandelstam izlanishlaridan keyin boshlanadi. 1955-1959 yillarda A.M.Mandelstam Kofirniyon daryosi quyi havzalarida antik davr mozor-qo'rg'onlarini o'rganish vaqtida bronza davriga tegishli qabrlarga duch keladi. Ular ikki guruhdan iborat bo'lib, tadqiqotchi birinchisini –“Ilk Tulxor” (75 ta mozor) va ikkinchisini – “Ilk Aruktau” (12 ta mozor-qo'rg'on) yodgorliklari deb atadi. Bu yodgorliklar Janubiy Tojikiston hududlarida keng ko'lamda, o'ta sinchkovlik bilan o'rganilgan ob'ektlar bo'lib, tadqiqotchi tomonidan qabrlarning ichki tuzilishi 4 xil turi aniqlangan. Ular orasida Ilk Tulxor ob'ektlarining 57 dafina qabrga qo'yilgan buyumlarining tarkibi va qabr tuzilishi jihatidan bir xil, ya'ni qabrlar ayvonidan lahatga bir pillapoya orqali (yama so spuskom) kirilgan. Bunday tuzilish va ashyoviy tarkib jihatidan bir xil mozorlar tadqiqotchi tomonidan Janubiy Tojikiston bronza davri chorvadorlarining Bishkent madaniyati, deb ataldi. Ularning davriy yil sanasi esa mil. avv. XIII-IX asrlar bilan belgilandi.

Afsuski, na tadqiqotchi, na uning izdoshlari Bishkent madaniyati qabilalarining tarixiy kelib chiqish ildizlarini mahalliy qabilalar bilan bog'lamaydi. Aksincha, A.M.Mandelstamning farazlariga ko'ra, Bishkent madaniyati jamoalari Baqtriyadan shimolroqda Zamonbobo va andronova jamoalari etnik asosida shakllangan chorvador qabilalarning bu zaminga kirib kelishi bilan bog'laydi. Shuningdek, Bishkent arxeologik komplekslarida uchraydigan dehqon jamoalariga xos materiallarning uchrashi, bu ikki madaniyat jamoalari o'rtasida bo'lib turadigan iqtisodiy va etnomadaniy aloqalar tahlili bilan izohlaydi. A.M.Mandelstamning bunday xulosaga kelishida Buxoro vohasining Zamonbobo madaniyati qabrlari tuzilishidagi o'xshashlik va uning keramika kompleksida uchraydigan sharsimon (korpusli) tuzilishidagi xurmachalar asos bo'lgan. Biroq, xali Sopolli madaniyatining Mo'lali va Bo'ston bosqichlari haqida, ularning arxeologik komplekslari to'g'risida ilmiy adabiyotlarda tegishli ma'lumotlar mavjud emas edi. Sopolli madaniyati va uning bosqichlarini keng ko'lamda o'rganilishi natijasida A.M.Mandelstam tomonidan bildirilgan farazi haqiqatdan uzoqroq ekanligi isbotlandi. Bu muammo, keyinroq, Janubiy-g'arbiy Tojikistonning Vaxsh va Qizilsuv daryolari quyi havzalarida Yu.A.Litvinskiy tomonidan Vaxsh madaniyati yodgorliklari ochib o'rganilgach, o'z ilmiy yechimini topdi.

B.A.Litvinskiy o'z qarashlarida, ularning kelib chiqish tarixiy ildizlarini Janubiy Turkmaniston bronza davri Anov-Nomozgoh qadimgi dehqonchilik madaniyatining

Dashli jamoalari bilan bog'laydi. Uning fikricha, bir guruh Dashli dehqonchilik jamoalari Shimoliy Afg'onistondan Vaxsh va Qizilsuv daryolari quyi havzalariga kirib kelganlar. Bu zaminning tabiiy-geografik sharoiti va ekologik imkoniyatlari Dashli dehqon jamoalarini yangi sharoitga moslashib, chorvachilik xo'jaligini yuritishga majbur bo'lganliklarini asoslashga intiladi. Sopolli va Bishkent-Vaxsh madaniyatlari orasida uzviy genetik aloqa borligi masalasida akademik A.Asqarov ham Sopolli madaniyatida olib borgan izlanishlari natijasida o'zining aniq qarashlarini bayon etgan.

Ularning izidan borgan tadqiqotchilar L.T.Pyankova va N.M.Vinogradovalar u tadqiqotchilarning qarashlari asosida qandaydir tarixiy haqiqatlar borligini e'tirof etadilar. Bu Bishkent va Vaxsh madaniyatlarining kelib chiqish tarixiy ildizlari va ularning yangi sharoitdagi rivojlanish yo'nalishlarini hisobga olgan holda, Janubiy g'arbiy Tojikiston hududlarining qadimgi chorvador qabilalar madaniyatlarini birlashtirib, Bishkent-Vaxsh madaniyati deb atashni taklif qiladilar. Bu fikrning ilmiy, asosli ekanligi haqiqatga yaqindir.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Виноградова Н.М. Новые памуатники эпохи бронзы на территории Южного Таджикистана // Централнауа Азиуа. Новые памуатники писменности и искусства. –М., 1987. – С. 76-91;
2. Vinogradova N.M. The Farming Settlement of Kangurtut: in the Late Brjnze Age // AMI. –В.27. – Berlin, 1994. – P. 29-47;
3. Смолишев П.И. Погребениуа со скорченными костуаками в районе г. Сталинабада. ИТФ АН СССР. –№15, 1949. –С. 82.
4. Тереножкин А.И. Археологические находки в Таджикистане // КСИИМК. – Вып. XX. 1948. – С.77.
5. Киуаткина Т.П. Черепа эпохи бронзы с территории Уиго-западного Таджикистана. Приложение к работе А.М. Манделштам “Памуатники эпохи бронзы в Уижном Таджикистане». МИА, –№ 145, –Ленинград, 1968. – С. 171-173.
6. Ранов В.А., Филимонова Т.Г. Изучение Гиссарской культуры и неолитические слои поселениуа Кангурттут (К проблеме финального этапа гиссарской культуры) // Сб. «Памуатники Кангурттута в уиго западном Таджикистане (эпоха неолита и бронзового века)». – Москва, ИВ РАН. 2008. – С.24;